



FUQAROLIK JAMIYATIDA SIYOSIY MADANIYATNI
SHAKLLANTIRISH MEXANIZMLARI

Sharof Agabayev

O'Zdju Siyosiy fanlar kafedrası dotsenti

(sharofagabaev@gmail.com)

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy siyosiy tizimlarda fuqarolik jamiyatining siyosiy roliga va ayniqsa, siyosiy madaniyatni shakllantirishdagi o'rniga e'tibor qaratiladi. Fuqarolik jamiyati institutlarining davlat hokimiyati faoliyatini nazorat qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, siyosiy savodxonlikni oshirish, siyosiy ijtimoiylashuvni ta'minlash, hamda jamiyatda siyosiy tolerantlik, pluralizm va inklyuzivlik tamoyillarini mustahkamlashdagi faoliyati tahlil etiladi. O'zbekiston misolida "eshituvchi davlat" konsepsiyasi doirasida fuqarolik jamiyati va siyosiy madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlik ochib beriladi. Maqolada shuningdek, fuqarolik jamiyati vositasida ijtimoiy birdamlikni shakllantirish mexanizmlari ham ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Fuqarolik jamiyati, siyosiy madaniyat, siyosiy ishtirok, davlat nazorati, saylov, siyosiy savodxonlik, eshituvchi davlat, siyosiy tolerantlik, pluralizm, ijtimoiy birdamlik, siyosiy ijtimoiylashuv.

Zamonaviy siyosiy tizimlarda fuqarolik jamiyatining asosiy funksiyalaridan biri – bu davlat hokimiyatining faoliyatini nazorat qilishdir. Demokratiya tamoyillariga asoslangan boshqaruvda fuqarolik jamiyati subyektlari hokimiyat faoliyatini tanqidiy tahlil qilish, uni ochiq va javobgar qilish, shuningdek, ijtimoiy ehtiyojlar va muammolar bo'yicha muqobil tashabbuslarni ilgari surish orqali faol siyosiy rol o'ynaydi. Davlat hokimiyati ustidan fuqarolik nazorati bir necha asosiy yo'nalishlarda amalga oshiriladi. Birinchi navbatda, bu saylovlar va referendumlar orqali ifodalanadi. Saylov instituti – fuqarolarning hokimiyat tuzilmalarini shakllantirishdagi bevosita ishtirok shakli bo'lib, siyosiy legitimlikni ta'minlash vositasidir. Ayniqsa, saylov jarayonining shaffof va adolatli o'tkazilishi jamoatchilik ishonchining asosiy omillaridan biridir [1].

Umuman olganda, fuqarolik jamiyatining fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishdagi roli ko'p darajali, ko'p formatli va institutsional jihatdan murakkab tizim bo'lib, bu faoliyat siyosiy barqarorlik, huquqiy davlat va inklyuziv boshqaruv tamoyillarining barpo etilishida strategik ahamiyat kasb etadi.

Siyosiy madaniyat – bu jamiyatdagi fuqarolarning siyosiy ong darajasi, ularning siyosiy institutlarga nisbatan munosabati, siyosiy ishonch, fuqarolik faolligi va huquqiy tafakkur madaniyati bilan bevosita bog'liq bo'lgan kompleks hodisadir. Bu jarayon, bir tomondan, siyosiy ijtimoiylashuv mexanizmlarini anglatadi, boshqa tomondan esa, siyosiy tizimning



legitimligi va barqarorligining asosiy kafolatidir. Fuqarolik jamiyati mazkur jarayonda vositachi institut sifatida alohida o'rin tutadi, chunki aynan shu maydon orqali fuqarolar siyosiy axborotni qabul qiladi, uni tahlil qiladi va qarorlar qabul qiluvchi aktor sifatida shakllanadi.

Fuqarolik jamiyatining siyosiy madaniyatni shakllantirishdagi roli ko'p qirrali va sistematik tusga ega. Birinchidan, u siyosiy ta'lim orqali aholining siyosiy bilimlarini kengaytiradi. Nodavlat tashkilotlari, mustaqil ommaviy axborot vositalari, jamoat kengashlari va universitetlarga qoshilgan ilmiy markazlar orqali fuqarolarga siyosiy jarayonlar mohiyati, huquqiy normalar, fuqarolik mas'uliyati tushuntiriladi. Bu esa siyosiy savodxonlikni oshirishga xizmat qiladi [15].

Ikkinchidan, fuqarolik jamiyati ommaviy muhokamalar va jamoatchilik eshituvlari orqali fuqarolarning faol ijtimoiy pozitsiyasini shakllantiradi. Turli sohalaridagi islohotlar muhokamasida aholining bevosita ishtiroki, xususan elektron portallar, forumlar, bloglar va ijtimoiy tarmoqlar orqali o'z fikrini ifoda etish tajribasi siyosiy madaniyatning interaktiv modelini kuchaytirmoqda [16].

Uchinchidan, fuqarolik jamiyati siyosiy madaniyatda siyosiy partiyalar va saylov kampaniyalari orqali qatnashish mexanizmini ilgari suradi. Siyosiy partiyalar fuqarolarning manfaatlarini ifodalovchi muhim vosita sifatida harakat qiladi. Partiyalar faoliyati orqali fuqarolarda tanqidiy fikrlash, muqobil pozitsiyani tushunish, demokratik bahs-munozara madaniyati rivojlanadi. Saylov jarayonlarida esa fuqarolik jamiyatining kuzatuvchilari, monitoring guruhlar va huquqiy maslahat markazlari faoliyati saylov madaniyatini oshiradi va saylov jarayonining ochiqqligini ta'minlaydi [17].

To'rtinchidan, siyosiy madaniyatning tarkibiy qismi bo'lgan siyosiy tolerantlik, pluralizm va inklyuzivlik tushunchalari aynan fuqarolik jamiyati orqali jamiyatda muhim qadriyat sifatida shakllantiriladi. Bu, ayniqsa, yoshlar, ayollar, nogironlar va boshqa ijtimoiy guruhlarining siyosiy hayotdagi ishtirokini rag'batlantirish orqali amalga oshiriladi.

Zamonaviy O'zbekiston kontekstida bu jarayon prezident Sh. M. Mirziyoyev tashabbusi bilan shakllangan "eshituvchi davlat" konsepsiyasi doirasida aniq ifoda topmoqda. Bunda siyosiy madaniyat nafaqat ijtimoiy faollik shakli, balki fuqarolik mas'uliyatining ifodasi sifatida e'tirof etiladi [18].

Zamonaviy siyosiy jarayonlar shuni ko'rsatmoqdaki, fuqarolik jamiyati institutlari nafaqat demokratik islohotlarning kuchaytiruvchisi, balki jamiyatda ijtimoiy birdamlikni shakllantiruvchi asosiy mexanizmlardan biri sifatida ham faoliyat yuritmoqda. Bu ayniqsa, ko'p millatli, konfessiyaviy jihatdan turli jamiyatlarda muhim ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy birdamlik — bu jamiyat a'zolari o'rtasida o'zaro ishonch, axloqiy birlik, madaniy hamjihatlik va umumiy fuqarolik identitetining mavjudligidir.





Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Даль Р. А. Плюрализм и демократия: Избранные работы. — М.: Логос, 2000. — 356 с.
2. Дюркгейм Э. О разделении общественного труда. — М.: Наука, 1991. — 392 с.
3. Юнусова Г.М. Гражданское общество и социальная инклюзия в Центральной Азии. — Ташкент: Фан, 2022. — 198 с.
4. Gramsci A. Prison Notebooks. — New York: Columbia University Press, 1992. — 347 p.
5. Бекмурадов Б. Межэтнические отношения и гражданское общество в Узбекистане. — Ташкент: ИА ВАУ, 2021. — 144 с.

